

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 7

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 348 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 25-iyulda ruxsat etildi.*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyea Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Avtosanoat korxonalari marketing strategiyasini takomillashtirish yo'llari	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zayniddinova Umida Djalolovna	
Mamlakat raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda maxsus iqtisodiy zonalar omilidan foydalanish istiqbollari	26
Izbosarov Boburjon Baxriddinovich, Abdurasulov Ravshanbek Xotam o'g'li	
Mahalla institutini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning institutsional tahlili	32
Bahriddinov Viqorjon Akbar o'g'li	
Mamlakatimizda pillachilik biznesini rivojlantirish orqali mahsulot ishlab chiqarish va uni qayta ishlash holatining tahlili	37
Turgunov Odilbek Maripovich	
Etnografik turizmni tashkil etishning xorij tajribasi	41
I. Axmedov	
Xizmatlar sohasining milliy iqtisodiyotdagi rolini tahlil qilishning zamonaviy yondashuvlari	46
Xusanov Murodjon Sunnatullayevich	
Iqtisodiy o'sish tushunchasi va uning rivojlanish tarixi	54
Maksudov Avazbek Ulug'bek o'g'li	
Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni takomillashtirish asosida inson kapitalini rivojlantirish	59
Ubaydullaev G'ayrat Zuvaytovich	
O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlashda oilaviy tadbirkorlikning o'rne	65
Baymanova Mavlyuda Djurayevna	
The Effect of Students' Financial Status on Academic Performance in Uzbekistan	70
Alimov Damirjon Odilovich	
Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatining o'rne	76
Jusupova Anjim Tansiqbaevna	
Insurance Mechanisms in Foreign Trade: Mitigating Risk and Facilitating Global Commerce	82
Sohibjamol Abirkulova	
Nodavlat umumiy o'rta ta'lim maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashdainnovatsion usullardan foydalanish	87
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalar hisobi va auditi bo'yicha xorijiy tajribalar va ulardan respublikamizda foydalanish imkoniyatlari	92
Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi budjetining shakllanishida egri soliqlarni undirishning fiskal samaradorligi	97
Abdulxayeva Shahnoza Muxammadiyevna	
Mamlakat sanoatining barqaror rivojlanishida energosamaradorlikning roli	104
J. J. Yaxshilikov	
Сравнительный анализ состояния сферы услуг в регионах Андижанской области	109
Мусабоев Рустам Алижонович	
Hududlarda aholi bandligini oshirish va kambag'allikni qisqartirishda ishlab chiqarish sanoatining o'rne (Qashqadaryo viloyati misolida)	114
Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Baxronov Baxriddin Najmiddinovich	
Banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini takomillashtirish yo'llari	118
Ermatov Utkirbek Baxodirjonovich	



Развитие цифровой экономики в Узбекистане, ее плюсы и минусы	122
Раупова Мухлисахон Ибрахимжон кизи, Мамбетова Мадина Зоҳид кизи, Алижонов Малика Алижон кизи, Хакимова Нигора Бахтиёрвна	
Investment Management is an Important Factor of Economic Development.....	127
Yuldasheva G. A., Ziyayev Dilshodjon	
O'zbekistonda moliyaviy texnologiyalar sanoatining rivojlanish istiqbollari.....	130
Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li	
Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi loyihalarni moliyalashtirish.....	136
To'irov Yunus Alamovich	
Operatsion faoliyatni boshqarishda strategiya tushunchasiga bo'lgan yondashuvlarning shakllanishi.....	143
Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich	
Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash.....	148
Xusniddinov Yorqinjon Muxiddin o'g'li	
Budjet tashkilotlarida pul mablag'lari nazorat qilishni rivojlantirish yo'llari.....	152
Alimardonov Muxammadi Ibragimovich, Djalilova Malika Shuxratovna	
QQS ma'murchiligining yevropa tajribasi.....	157
Bisenbayev Sharyar Kuanishbayevich	
O'zbekistonda soliq yukiga ta'sir etuvchi omillar tahlili	162
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida muqobil energiya vositalaridan foydalanib ma'lumot almashinish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari	170
Ashurov Azizbek Ergash o'g'li, Janzakov Bekzot	
Analysis of the theoretical foundations of sustainable economic development at regional level	175
Khudayorova Munira Omonboy kizi	
Soliq ma'murchiligida joriy etilgan jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish yo'llari	182
Muxtorov Zokir Sayfulla o'g'li, Karimov Ilhom Anorboy o'g'li, Homidov Asrorbek Tohirjon o'g'li, Axmedova Shoxista G'ayrat qizi	
Sirdaryo viloyatining investitsiya muhiti zamonaviy rivojlanish tendensiyalari	187
Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna	
Transformatsiyalash jarayonida tijorat banklarining kreditlash faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	191
Razzoqov Bexzod Gofurovich	
Modern trends in assessing the impact of industrial development on the environment.....	196
Turg'unov Jasurbek Alimardon o'g'li	
Pul oqimlarini guruhlash mezonlari bo'yicha tasniflashni kengaytirish.....	202
Atamurodov Saidmurod Yaxyoevich	
Iqlim o'zgarishlari va uning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirining ilmiy-nazariy tahlili	208
Ashrafjon Elov	
Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati	214
Abramatov Eldor Toshmamatovich, Alimov Abduraxon Alxamiddin o'g'li, Shodmonqulov Temurbek Ulug'bek o'g'li, Nurillayev Jasurbek Davronbekovich	
Tijorat banki daromadlari - moliyaviy barqarorlikni omili sifatida.....	218
Umarov Davron Shavkatovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxona barqarorligini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari	223
Masharipova Manzura Alimbayevna, Rahimov Mirjalol Sultonboy o'g'li	
Innovatsion yondashuvlar asosida chakana savdoni rivojlantirish yo'nalishlari.....	227
Saparova Mohira Alisher qizi, Abdullayev Ilyos Sultanovich	



Experience of foreign countries in youth labor market research	231
Asqarova Muhabbat Ibraximovna	
Xorij mamlakatlarida ijtimoiy tibbiy sug'urta badallari qiymatlarini taqqoslash	235
Umurzakova Mo'tabarxon Nodir qizi	
O'zbekistonda alkogol va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarilishi hamda realizatsiya qilinishi tahlili	241
Eshmatov Sirojiddin Tog'aymurodovich	
Oliy ta'lim muassasalarini xalqaro tasnifining vujudga kelishi ilg'or tajribalari	247
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
Анализ зарубежного опыта методологии оценки финансового потенциала развитых стран.....	253
Буранова Лола Вахобовна	



O'ZBEKISTONDA ALKOGOL VA TAMAKI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUARILISHI HAMDA REALIZATSIYA QILINISHI TAHLILI

Eshmatov Sirojiddin Tog'aymurodovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada aksiz to'lanadigan soliqlar aksiz to'lanadigan mahsulotlar narxiga kiritiladi va shu tariqa yakuniy iste'molchilarga o'tkaziladi. Shu bilan birga, O'zbekistonda alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish bo'yicha olib borilgan tahlillar haqida umumiy ma'lumot berilgan. Tadqiqot bozor dinamikasi, me'yoriy-huquqiy bazalar, sanoat ishtirokchilari va ushbu ikki sektorga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni har tomonlama tekshirishni o'z ichiga oladi.

Aksiz solig'i davlat daromadlarini shakllantirishda va muayyan tovar va xizmatlar iste'molini tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada aksiz solig'i ma'muriyatchiligi nazorat mexanizmlarini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan, asosiy e'tibor soliq organlarida siyosat islohotlari integratsiya va salohiyatni oshirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: egri soliqlar, aksiz solig'i, aksizosti mahsulotlar, qiyinchiliklar, samarasizlik, muvofiqlik, daromadlarni optimallashtirish, tartibga solish natijalari, soliqlar va soliqqa tortish, aksizosti tovarlarni soliqqa tortish amaliyoti.

Abstract: The article states that excise taxes are included in the price of excise goods and thus passed on to final consumers. At the same time, general information about the analyzes conducted on the production and sale of alcohol and tobacco products in Uzbekistan is given. The study includes a comprehensive examination of market dynamics, regulatory frameworks, industry players and socio-economic factors affecting these two sectors.

Excise tax plays an important role in the formation of state revenues and regulation of consumption of certain goods and services. This article outlines the main directions for improving the control mechanisms of the excise tax administration, focusing on policy reforms integration and capacity building in tax authorities.

Key words: indirect taxes, excise tax, excise goods, difficulties, inefficiency, compliance, revenue optimization, regulatory results, taxes and taxation, practice of taxation of excise goods.

Аннотация: В данной статье акцизы включаются в цену подакцизных товаров и таким образом передаются конечным потребителям. При этом приводятся общие сведения о проведенных анализах по производству и реализации алкогольной и табачной продукции в Узбекистане. Исследование включает в себя комплексное изучение динамики рынка, нормативной базы, игроков отрасли и социально-экономических факторов, влияющих на эти два сектора.

Акцизный налог играет важную роль в формировании доходов государства и регулировании потребления отдельных товаров и услуг. В данной статье обозначены основные направления совершенствования механизмов контроля администрирования акцизного налога с упором на интеграцию политики реформ и наращивание потенциала налоговых органов.

Ключевые слова: косвенные налоги, акцизный налог, подакцизные товары, трудности, неэффективность, соблюдение требований, оптимизация доходов, результаты регулирования, налоги и налогообложение, практика налогообложения подакцизных товаров.

KIRISH

Mamlakatimizda aksiz solig'i davlat daromadlarini shakllantirish va ayrim tarmoqlarni tartibga solishda hal qiluvchi rolga ega hisoblanadi. Lekin, aksiz solig'i bo'yicha samarali ma'muriyatchilikni ta'minlash turli qiyinchiliklar tufayli murakkab hisoblanadi. Aksiz solig'i ma'muriyati tartibga solinadigan tarmoqlarga ta'sirini hisobga olgan holda rioya etilishini nazorat qilish, adolatli yig'ishni ta'minlash va daromadlarni optimallashtirishni o'z ichiga oladi. Aksiz solig'ini takomillashtirishning xususiyatlari va usullarini o'rganish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda va davlat iqtisodiy siyosati faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u milliy iqtisodiyot moliyaviy resurslarning muhim qismi oqimini ta'minlaydi. Umuman olganda, aksiz solig'i tizimi murakkab bo'lib, uni davlat byudjetida hisoblash vazifalari bilan tarixiy aloqalarni shakllantiradi. Shuningdek, aksiz solig'i byudjet tizimi byudjetini to'ldirishga sezilarli ta'sir ega va muhim soliq turlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Aksiz solig'i turli iqtisodiy rivojlanish bosqichlarida bo'lgan qator davlatlarda bilvosita soliqqa tortishning samarali shakli sifatida e'tirof etiladi.



Xorijiy olimlar M.V.Kashirinaning fikricha, aksiz solig'i tizimi murakkab hisoblanadi. Aksiz solig'i va alkogolli mahsulotlarning muomalasini nazorat qilish muammosi mavjud, chunki ularni sotish hajmi noqonuniy ishlab chiqarishni rivojlantirish ko'lamiga to'g'ri keladi va katta miqdordagi mablag'lar davlat byudjetidan tashqarida muomalada bo'ladi. Muammoning yechimi alkogolli mahsulotlar ishlab chiqarishda nazoratni kuchaytirish va aksiz tizimida yetarli soliq solinadigan bazani yaratish uchun shart-sharoit yaratish bo'lishi mumkin[1].

S.Delipalla tomonidan "aksiz solig'i bilvosita soliqlarning tarkibiy qismlaridan biridir. 1976-yildagi Aksizlar to'g'risidagi qonunning 6-bo'limida ko'rsatilganidek, Malayziyaga va mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarga import qilinadigan aksiz solig'i. Bu boj davlat iste'moli yoki ijtimoiy muhandislik tendensiyasini o'zgartirish mexanizmi sifatida ishlatiladi. Aksiz solig'i to'g'risidagi aktda majburiy bo'lgan tovarlarga spirtli ichimliklar, tamaki, sigaretalar, sigaretalar, to'rt g'ildirakli haydovchilar, ko'p maqsadli transport vositalari va o'yin kartalari kiradi" [2].

D.E.Giles, L.M Tedds tomonidan kontrabanda faoliyatini soliq organidan soliq to'lashdan bo'yin tovlash maqsadida amalga oshiriladigan qonuniy yoki noqonuniy, bozor yoki bozordan tashqari barcha operatsiyalar deb ta'riflagan. Bilvosita soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash ko'pincha kontrabanda, ayniqsa bojxona tariflari bo'yicha jinoyatlar bilan bog'liq. Kontrabanda jinoyatlari yembargo, mahsulot sifati va kvotalar kabi pul va pul bo'lmagan daromadlarga ta'sir qiladi [3].

O. T.Hai va L. M. See tomonidan soliq to'lovlariga qasddan yoki qasddan jalb qilingan kompaniyalar, jismoniy shaxslar ishtirokidagi o'lchovlar bo'yicha duch kelgan qiyinchiliklar tufayli mos kelmaslik bo'yicha tadqiqot olib borishdi. Shu sababli, ushbu tadqiqotda asosiy e'tibor soliq to'lovchi sifatida import qiluvchilar o'rtasida aksiz solig'ini bajarmaslik hodisasi va omillariga qaratilgan[4].

Bundan tashqari, fransuz iqtisodchisi F.Demezong ta'kidlab o'tgan edi: "Aksizning birgina o'zi boshqa barcha soliq tushumlari va undan ham ko'proqni berishga qodirdir" [5].

L.V.Borovko fikricha, "hozirgi zamon soliq siyosatining istiqbolli yo'nalishi va konseptual aksiz solig'iga tortish amaliyotining ijtimoiy yo'naltirilgan modelini shakllantirish va uning samarali rivojlanishini ta'minlashdir" [6].

O.R.Tegetaeva fikricha, "aksiz solig'i egri soliq tarkibiga kirsada, hozirda uning asosiy ahamiyati aholi ijtimoiy iste'molining holati va istiqbolini baholash mezonini ekanligidadir" [7].

M.A.Troyanskaya va Yu.O.Nizamievalar ta'kidlashicha, "bilvosita soliqqa tortishning samarali shakli sifatida aksiz solig'idan iste'molni tartibga soluvchi va ishlab chiqarishni rag'batlantiruvchi vosita sifatida foydalanish imkoniyatlarini yaratish, ularning barqarorligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etayotir" [8].

Yuqorida bildirilgan fikrlarning tahlili alohida ta'kidlash joizki, mamlakatimizda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida aksizosti tovarlarni soliqqa tortish amaliyoti hamda aksiz solig'i ma'muriyatchiligi mavzusi juda kam o'rganilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada aksiz solig'ini qiyosiy tahlil hamda induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usuldan foydalanilib, aksizosti tovarlarni soliqqa tortish amaliyotini samarali boshqarishda kreativ yondashuvlarning amaliy ahamiyatini yoritish bo'yicha ilmiy xulosalar berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda O'zbekistonda alkogol va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarilishi hamda realizatsiya qilinishi tahlil qiladigan bo'lsak quydagilar ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Hususan alkogol mahsulotlari:

Alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish va realizatsiya qilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan sub'ektlar faoliyati ustidan nazoratni ta'minlash va davlat byudjetiga tegishli soliqlarni undirish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Alkogol mahsulotlari bo'yicha aksiz solig'i tushumi va ta'sir etuvchi omillar tahlili.

2022-yil alkogol mahsulotlari bo'yicha aksiz solig'idan 1 813 mlrd.so'mlik prognoz ko'rsatkichlari tasdiqlanib (2021-yilga nisbatan 1,2 baravarga ko'p), 1 sentyabr holatiga 816,8 mlrd.so'mi yoki 45 foizi ta'minlandi.

O'tgan yilning mos davrida 794,5 mlrd.so'm yoki yillik prognoz ko'rsatkichning 51,4 foizi ta'minlangan. Kuz-qish oylarida alkogol mahsulotlariga talabning o'sishi hisobiga 2021-yil sentyabr-dekabr oylarida 621,6 mlrd.so'm (yillik prognozning 40,2 foizi) tushum ta'minlangan. Alkogol mahsulotlari uchun aksiz solig'i to'lovchilari soni 54 tani tashkil etib (shundan, 4 ta etil spirti ishlab chiqaruvchi), alkogol mahsulotini ishlab chiqaruvchi 50 ta korxonaning 36 tasida (72%) aksiz solig'i to'lovi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 115,8 mlrd.so'mga yoki 21 foizga kamaygan.

Jumladan, "Sirdaryo vino" AJ 3,5 mlrd.so'mga (-100 %), "Komsar" MChJ 7,1 mlrd.so'mga (-79 %), "Xovrenko nomidagi Samarqand vino kombinati" AJ 6,1 mlrd.so'mga (-69 %) va "Karvon" MChJ 5,3 mlrd.so'mga (-47 %). Quyidagi omillar (7 ta) ta'siri yil boshidan 324,5 mlrd.so'mdan ortiq aksiz solig'i va 68,0 mlrd.so'm QQS hisoblanmasligiga olib kelgan:



Etil spirti va alkogol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan 2022-yilda o'tgan yil mos davriga nisbatan 10 foiz kam mahsulot realizatsiya qilinganligi (2022-y. – 9,4 mln. dal, 2021-y. – 10,4 mln.dal) natijasida 119,2 mlrd.so'm aksiz solig'i hisoblanmasligiga olib kelgan. Xususan, o'tgan yilning mos davrida 44,8 ming dal spirtli ichimlik realizatsiya qilgan va jami 9,4 mlrd.so'm aksiz solig'i to'lagan 12 ta korxona joriy yilda faoliyat ko'rsatmagan. Shundan, 1 ta korxonani ("Savb" MChJ) litsenziyasi bekor bo'lgan, 3 ta korxona ("Orzu K" MChJ, "Yangiqo'rgon sharobi" MChJ, "Gallaorol nur" XK) litsenziyasi 6 oyga (1 oktyabrgacha) to'xtatilgan va 1 ta korxonaning ("Dacha" MChJ) aroq va likyor mahsulotini ishlab chiqarish uchun litsenziyasini bekor qilingan.

Shuningdek, 2021-yilda 638,8 mlrd.so'm aksiz solig'i to'lagan, 29 ta korxonaning realizatsiya hajmi o'tgan yilga nisbatan 27 foizga kamayganligi (-1,6 mln.dal) hisobiga joriy yilda ular tomonidan 95,1 mlrd.so'm (-15 %) kam aksiz solig'i to'langan. Shundan, 1 ta korxonani ("Komsar" MChJ) litsenziyasi barcha mahsulotlarga bekor bo'lgan, 1 ta korxona ("Lazzat" MChJ) litsenziyasi 6 oyga (1 oktyabrgacha) to'xtatilgan va 1 ta korxonaning ("Sirdaryo vino" AJ) aroq mahsulotini ishlab chiqarish uchun litsenziyasi bekor qilingan.

Misol uchun: "Toshkentvino kombinati" AJ 439,8 ming dalga (-11,9 mlrd.so'm aksiz), "Farovon" MChJ 169,2 ming dalga (-5,1 mlrd.so'm), "Afsar Company LTD" MChJ 165,4 ming dalga (-14 mlrd.so'm) va "Far-Vab" MChJ QK 154,3 ming dalga (-20,3 mlrd.so'm) kamaygan.

2022-yilda 9 ta korxonada 1,7 mln.dal alkogol mahsulotlari realizatsiyasi qilinib, aynan ularda realizatsiya hajmi o'tgan yilga nisbatan 2 baravarga o'sgan va byudjetga 222,3 mlrd.so'm aksiz solig'i to'langan (2,3 baravarga ko'p).

Etil spirtini ishlab chiqaruvchilar tomonidan 2022-yilda 111,2 mln.tonna bug'doy xom ashyosi xarid qilinib, o'tgan yilning mos davriga (128,2 mln.tonna) nisbatan 16,9 mln.tonnaga (-13,2 foiz) kamaygan.

Xuddi shunday, alkogol mahsulotini ishlab chiqaruvchilar tomonidan joriy yilda 2,6 mln.dal etil spirti xom ashyo sifatida xarid qilingan bo'lsa, o'tgan yilning mos davrida bu ko'rsatkich 3,1 mln.dalni (-511,9 ming dal yoki -16,4 %) tashkil etgan.

O'tgan yilga nisbatan kam xarid qilingan xom ashyodan (bug'doy va etil spirti) ishlab chiqarilishi mumkin bo'lgan 546,7 ming dal etil spirti hamda 411,6 ming dal alkogol mahsulotlari bo'yicha 64,9 mlrd.so'm aksiz solig'i yo'qotildi. Etil spirtini ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan 2022-yilda 3,5 mln.dal mahsulot realizatsiya qilinib, shundan 2,6 mln.dal (o'tgan yilga nisbatan 511,9 ming dal kam) alkogol ishlab chiqaruvchilarga, qolgan 934,8 ming dal (o'tgan yili 587,5 ming dal) 593 ta boshqa ishlab chiqaruvchilarga realizatsiya qilingan.

"Andijon biokimyo zavodi" AJ tomonidan o'tgan yilning mos davriga nisbatan alkogol ishlab chiqaruvchilarga 271,9 ming dal kam (51 foiz), boshqa ishlab chiqaruvchilarga 293,9 ming dal ko'p (2,8 baravarga oshgan) mahsulot realizatsiya qilingan. 2022-yilda 594,8 ming dal etil spirti (boshqa korxonalarga realizatsiya qilingan spirtning 64 foizi) 36 ta antiseptik va tibbiy spirt mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan xarid qilinib, ushbu korxonalar tomonidan tarkibida o'rtacha 242,9 ming dal spirt mavjud bo'lgan 70,4 mlrd.so'mlik antiseptik va tibbiy spirt mahsulotlari realizatsiya qilinganligi aniqlandi. 2022-yil davomida 19 ta antiseptik va tibbiy spirt ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan 2021-yilga nisbatan 4 baravarga ko'p ya'ni, 485,1 ming dal spirt sotib olgan. Ushbu korxonalar tomonidan sotib olingan spirt hajmi hatto pandemiya davridagi xarididan (2020-yil) ham 5 baravarga yuqoriligi va tahlil natijasida aniqlangan boshqa faktlarga asosan, ushbu spirt mahsulotlari noqonuniy alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarishga yo'naltirayotganligiga shubha qilinmoqda. Ushbu korxonalarga mazkur sxema 50 mlrd.so'mdan ortiq aksiz solig'i to'lamaslik imkoniyatini bergan. Misol uchun: "Afrosiyobfarm" MChJ tomonidan joriy yilda 137,6 ming dal etil spirti (yil davomida xarid qilingan TMBIarning 95,4 foizi) xarid qilingan. Jamiyat tomonidan 8 oy davomida 20,8 mlrd.so'mlik (jami realizatsiyaning 75,9 foizi) antiseptik va tibbiy spirt mahsulotlari realizatsiya qilingan. Jamiyat tomonidan Onlayn-NKT orqali 24,7 mlrd. so'mlik mahsulotlar naqd pulga realizatsiya qilinganligi (272 ta chek), antiseptik mahsulotlar ishlab chiqarish uchun zaruriy xom ashyolar (glitserin, vodorod peroksidi, rang beruvchilar) xarid qilinmaganligi, tayyor mahsulotni qadoqlash uchun xarid qilingan flakonlar (50 ml) hamda realizatsiya qilingan mahsulot qadoqlari (200 ml) hajmidagi farq mavjudligi sababli, jamiyat tomonidan xarid qilingan 137,6 ming dal etil spirti keyinchalik alkogol mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarga naqd pul evaziga sotilayotgani shubha qilinmoqda (soliqdan qochish sxemasi ilova qilinadi).

O'tkazilgan o'rganishlar, hisob-faktura va onlayn NKM cheklarida aks ettirilayotgan alkogol mahsulotlari narxi, haqiqatdagi bozor narxidan keskin farq qilayotganligini ko'rsatdi. "Toshkentvino Kombinati" AJ tomonidan ishlab chiqilgan, bozor narxi o'rtacha 50 ming so'm bo'lgan 0,5 litr hajmli "Royal Elite Gold 40%" arog'i ishlab chiqaruvchidan yakuniy iste'molchigacha realizatsiya qilinish zanjiri o'rganib chiqildi. "Toshkentvino Kombinati" AJdan 30 ta ulgurji savdo korxonalari 470,6 ming dona mahsulot 16,9 mlrd.so'mga (o'rtacha 35,9 ming so'm), ulgurji korxonalari tomonidan 443,6 ming dona mahsulot 16,0 mlrd.so'mga realizatsiya qilingan (o'rtacha 36,1 ming so'm). Chakana savdo korxonalari tomonidan esa, yakuniy iste'molchilarga onlayn-NKT orqali 16,7 mlrd.so'mga (o'rtacha 38,6 ming so'm) sotilgan.

Shuningdek, tahlil natijasida ishlab chiqaruvchi tomonidan realizatsiya qilingan narxdan ham arzonroq narxda 227,0 ming dona mahsulot 5,4 mlrd.so'mga (o'rtacha 23,6 ming so'mdan) onlayn-NKT orqali iste'mol-



chilarga realizatsiya qilinganligi aniqlandi. Masalan: "Toshkentvino Kombinati" AJ tomonidan ulgurji savdo korxonasiga 35,4 ming so'mdan va ushbu ulgurji korxonasi ustama qo'ymagan holda shu narxda "Hilola" MChJga (chakana savdo korxonasi), va "Hilola" MChJning yakuniy iste'molchiga 38 ming so'mdan realizatsiya qilingan. Bundan tashqari, 9 ta alkogol ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan 346,6 mingta 2,4 mlrd.so'mlik alkogol mahsulotlari belgilangan realizatsiya qilishning minimal qiymatidan ham 840,7 mln.so'mga past narxda realizatsiya qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi VMQ 80-son qaroriga asosan mazkur sub'ektlarga nisbatan, minimal narxlaridan past narxlarida sotilgan qiymatning 20 foizi miqdorida, biroq BHMning 100 baravaridan kam bo'lmagan miqdorda moliyaviy sanksiyalar qo'llanilishi belgilab qo'yilgan. Shu sababdan, belgilangan qiymatdan past narxda realizatsiya qilingan 9 ta korxonaga nisbatan jami 453,1 mln. so'm moliyaviy sanksiya qo'llash lozim. Alkogol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan rasmiylashtirilgan elektron hisobvara-fakturalarda aksiz solig'i aks etmaslik yoki kamaytirib ko'rsatish natijasida 90,4 mlrd.so'm aksiz va 68,0 mlrd.so'm qo'shilgan qiymat solig'i hisoblanmasdan qolganligi aniqlandi. 2022-yil 1-yanvardan boshlab raqamli markirovkalanagan mahsulotlar chakana savdosini amalga oshiruvchi tadbirkorlik sub'ektlari uchun onlayn NKM va virtual kassaga ulangan, shtrix-kodlar va raqamli markirovka kodlarini to'g'ri o'qishni va aniqlashni ta'minlovchi maxsus qurilmalardan majburiy foydalanish talabi o'rnatilgan (04.10.2021-yildagi PQ-5252-son).

Bugungi kunda alkogol mahsulotlari savdosi bilan shug'ullanuvchi korxonalarning 6 991 ta savdo shaxobchalarini maxsus qurilmalar (2D-skaner) bilan to'liq jihozlangan bo'lsada, markirovkalanagan mahsulotlar realizatsiyasida maxsus qurilmalarda o'tkazilmaslik holatlari mavjud. Misol uchun, 2022-yilda ulgurji korxonalar tomonidan maxsus qurilmada aks ettirgan holda chakana savdo korxonalariga 56,0 mln.dona alkogol mahsulotlari yetkazilgan bo'lsa, chakana savdo korxonalaridan ushbu mahsulotlarning atigi 5 foizi yoki 2,9 mln.donasi maxsus qurilmalarda o'tkazilganligi ma'lum bo'ldi. Alkogol mahsulotlarni chakana savdosi bilan shug'ullanuvchi korxonalar tahlil qilinganda, joriy yilning yanvar-avgust oylarida 6 526 ta (ruxsatnomasi mavjud) korxonalar tomonidan 2 826,3 mlrd.so'mlik alkogol mahsulotlari realizatsiya qilinib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo 2,2 baravarga (1 286,8 mlrd.so'm) oshgan. Shuningdek, ruxsatnomasi mavjud bo'lmagan 1 079 ta korxonalar 41,4 mlrd.so'mlik alkogol mahsulotlarini noqonuniy savdosi bilan shug'ullangan. Buning natijasida bir oyda o'rtacha 915 mln.so'mlik yig'im byudjetga undirilmadan qolinmoqda.

Alkogol mahsulotlarini noqonuniy ishlab chiqarish va sotilishi holatlari tahlil qilinganda Davlat soliq xizmati organida alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda uning realizatsiyasida savdo qoidalariga rioya etish yuzasidan nazorat tadbirlarini o'tkazish, savdo qoidalariga buzilganlik holati bo'yicha jarima qo'llash, noqonuniy (qalbaki) alkogol mahsulotlarini olib qo'yish, mavjud litsenziyani bekor qilish yuzasidan tegishli agentlikka murojaat qilish vakolati mavjud. 2022-yilda o'tkazilgan nazorat tadbirlarida sotuvdagi 377,2 mln.so'mlik 8 559 litr qalbaki aksiz marka bilan markalangan spirtli ichimliklar, 3,6 mln.so'mlik 115 litr eski namunadagi aksiz marka bilan markalangan spirtli ichimliklar, 7,7 mln.so'mlik 223 litr markirovkalanmagan spirtli ichimliklar va 284,9 mln. so'mlik 37 100 litr noqonuniy ishlab chiqarilgan spirt mahsuloti olib qo'yilgan.

Xususan, Farg'ona viloyatida 4 753 litr (227,2 mlrd.so'm), Surxondaryo viloyatida 1 510 litr (67,8 mlrd. so'm), Toshkent viloyatida 1 693 litr (48,7 mlrd.so'm), Xorazm viloyatida 718 litr (35,8 mlrd.so'm) va Toshkent shahrida 223 litr (9,1 mlrd.so'm) markirovkalanmagan hamda qalbaki yoki eski namunadagi aksiz markali alkogol mahsulotlar olib qo'yilgan. Qolgan hududlarda o'tkazilgan tekshiruvlarda bunday holatlar aniqlanmagan. Misol uchun, "Shirin suv savdo" MChJning Toshkent viloyatida joylashgan omborida 9 308 dona qalbaki aksiz markali va 55 dona markirovkalanmagan, shuningdek Toshkent shahridagi omborida 98 dona eski aksiz markali va markirovkalanmagan alkogol mahsulotlari borligi aniqlangan.

Qalbaki aksiz markali alkogol mahsulotlaridagi raqamli markirovka kodlari tekshirilganda "Xovrenko nomidagi Samarqand vino kombinati" AJda ishlab chiqarilganligi ma'lum bo'lgan (aniqlangan holatlar yuzasidan Agentlikka tegishli chora ko'rish yuzasidan murojaat xati yuborilgan). Shuningdek, alkogol mahsulotlarining ulgurji va chakana savdosi faoliyati bilan shug'ullanayotgan 12 ta sub'ektlarda o'tkazilgan sayyor soliq tekshiruvlarida 23,5 mlrd.so'mlik alkogol mahsulotlari qoldig'i kamomadi, 1,1 mlrd.so'mlik alkogol mahsulotlar kirim hujjatlari saqlanayotgani aniqlangan. Bundan tashqari alkogol mahsulotlarining chakana savdosi bilan shug'ullanuvchi 7 069 ta savdo shaxobchalarining 2 743 tasida (39 %) chek bermaslik holati yuzasidan tekshiruvlar o'tkazilib, 22,9 mlrd.so'm jarima qo'llanilgan. Hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida – 655 ta, Toshkent viloyatida 344 ta hamda Samarqand viloyatida 265 ta shaxobchada chek bermaslik holatlari aniqlangan.

Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti hisobotiga ko'ra O'zbekistonda:

- tamaki mahsuloti narxida aksiz solig'i ulushi - 56,3 foiz (Rossiya – 56,1%, Qozog'iston – 55,7%, Belarus – 55,6%, Qirg'iziston – 52,9%, Armaniston – 44,2%).

- katta yoshdagi aholi ichida chekuvchilar ulushi – 9 foiz (Turkmaniston – 4%, Qozog'iston – 16%, Qirg'iziston – 22%, Belarus – 23%, Armaniston – 25%, Rossiya - 27%).



Tarkibida nikotin bo'lgan nosigaret mahsulotlar (elektron sigaret, kalyan, tamaki, snyus-nikpek kabi mahsulotlar) ommaviylashuvi an'anaviy tamaki mahsulotlari chekuvchilari soniga ta'sir ko'rsatmoqda. Ma'lumot uchun: So'nggi 5 yilda nosigaret nikotinli mahsulot importining umumiy qiymati 34,3 baravar (2017-y. – 218,6 ming doll.dan, 2021-y. – 7 491,7 ming doll.), hajmi 9 baravar (2017-y. – 32,6 ming kg dan, 2021-y. – 291,4 ming kg) oshdi.

O'zbekistonning fiskal tizimida hal qiluvchi o'rin tutadi va davlat daromadlariga sezilarli hissa qo'shadi. Biroq, aksiz solig'ini ma'muriyatchiligining samaradorligi rioya etilishini ta'minlash, soliq to'lashdan bo'yin tovlashni minimallashtirish va daromadlarni maksimal darajada yig'ish uchun juda muhimdir. O'zbekistondagi amaldagi aksiz solig'i tizimi murakkablik, ijro bo'yicha bo'shliqlar va rivojlanayotgan iqtisodiy manzara kabi omillardan kelib chiqadigan muammolarga duch kelmoqda. Aksiz solig'i qoidalarini soddalashtirish, ilg'or monitoring texnologiyalari orqali majburlor choralarini kuchaytirish va transchegaraviy soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini bartaraf etishda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, hujjat biznes va jismoniy shaxslar o'rtasida xabardorlikni oshirish va soliqqa rioya qilish madaniyatini oshirish uchun shaffof hisobot mexanizmlari va tashabbuslarini amalga oshirishni talab etadi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) va AQSh Markaziy razvedka boshqarmasining 189 mamlakatni qamrab olgan hisob-kitoblariga ko'ra, 2023-yilda dunyo bo'yicha aholi jon boshiga o'rtacha alkogol iste'moli yiliga 6,4 litr toza spirtni tashkil qiladi. Spirtli ichimliklarni eng ko'p iste'mol qilish bo'yicha peshqadam davlatlar qatoriga Belarus – 17,5 litr, Moldova – 16,8, Litva – 15,4 va Rossiya – 15,1 litr kiritilgan.

Sobiq Ittifoq hududida: Gruziya – 7,45, Qirg'iziston – 4,02, Armaniston – 3,77, Qozog'iston – 3,73, Turkmaniston – 2,88, O'zbekiston – 2,45, Ozarbayjonda – 0,8 litr sof etil spirti iste'mol qilinadi.

IWSR tahlilchilarining prognoziga ko'ra, 2023-yilda jahon alkogol bozori o'sishni ko'rsatib, jahon iqtisodiyotiga 21,6 mlrd.dollardan ortiq daromad keltiradi. Kelgusi yillarda o'sishning asosiy omillari Hindiston, Meksika, Braziliya, AQSh va Xitoy davlatlarida prognoz qilingan. 2022-yildan 2027-yilgacha bo'lgan davrda o'sish sur'ati past - yiliga o'rtacha 1 foizga yaqin bo'lishi kutilmoqda.

Mavjud ekspert hisob-kitoblarga ko'ra, jahon alkogol bozorining 26 % nolegal alkogoldan iborat bo'lib, bu 40 mln. gektalitrndan ortiq, shu jumladan Yevropa Ittifoqida bu ko'rsatkich 13 %, Qozog'istonda 30 % va Rossiyada 27 %ni tashkil etadi.

Bu esa, alkogolli mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi korxonalarga yetkazib berilayotgan etil spirti to'liq hajmda kirim qilinmayotganligi, aksiz solig'i yetarli darajda o'ndirilmaganligi, shuningdek ichki bozorga "kontrafakt" mahsulotlarning chiqarilganligi va aholi salomatligiga jiddiy zarar yetkazilmishi xulosa qilinmoqda. Ushbu masala yechimi o'rganilgan jarayonida, rivojlangan davlatlarda ishlab chiqarish korxonalarga yuqori likvidli xom-ashyoni yetkazib berishda masofaviy nazorat tizimlari joriy etilganligi ma'lum bo'ldi.

Misol uchun, Rossiya Federatsiyasida Rosalkogolinspeksiya tomonidan etil spirtini tashish qoidalarini tasdiqlangan bo'lib, unga muvofiq 2012-yildan boshlab etil spirtini tashuvchi transport vositalari GPS-navigatsiya tizimi va mahsulot hajmini ko'rsatib turuvchi maxsus qo'rilma bilan jihozlangan bo'lishi lozim. Bundan tashqari elektron hisob varak fakturalar va yuk transport xatlari tizimi integratsiya qilingan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 23-iyuldagi "Alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularning aylanmasini tartibga solish sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 6033-sonli Farmoniga asosan, ushbu yo'nalishlarda ishlar olib borilishi belgilangan bo'lib, bugungi kungacha bironta tadbir amalga oshirilmagani ko'zatilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekistonda aksiz solig'i tizimi mamlakat fiskal tuzilmasining muhim tarkibiy qismi bo'lib, muhim davlat xizmatlari uchun daromad olishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Biroq, joriy aksiz solig'i ma'muriyatchidagi muammolar nazorat choralarini takomillashtirish va umumiy samaradorlikni oshirish uchun strategik va kompleks yondashuvni talab qiladi. O'zbekistonda aksiz solig'i ma'muriyatchiligining tahlili takomillashtirilishi kerak bo'lgan bir qancha muhim yo'nalishlarni ochib beradi. Birinchidan, amaldagi soliq qoidalarining murakkabligi rioya qilish uchun jiddiy to'siq bo'ladi. Ushbu qoidalarni soddalashtirish jarayonlarni soddalashtirishi mumkin, bu esa korxonalar va jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini tushunish va ularga rioya qilishlarini osonlashtiradi. Majburiy kamchiliklar yana bir qiyinchilikni anglatadi. Ma'lumotlar tahlili va raqamli vositalar kabi ilg'or monitoring texnologiyalarini joriy etish soliq organlarining soliq to'lashdan bo'yin tovlashni aniqlash va oldini olish imkoniyatlarini sezilarli darajada kuchaytirishi mumkin. Bundan tashqari, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish transchegaraviy soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini bartaraf etish va yanada mustahkam me'yoriy-huquqiy bazani yaratish uchun muhim ahamiyatga ega. Shaffof hisobot mexanizmlari va xabardorlik kampaniyalari soliq to'lovchilarda soliqqa rioya qilish madaniyatini oshirishga yordam beradi. Shaffoflikni rag'batlantirish va aholini soliq to'lovlarining afzalliklari to'g'risida xabardor qilish orqali hukumat soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasida ishonch va hamkorlikni mustahkamlaydi.



Yuqoridagilarni inobatga olib, ushbu yo'nalishda xufiyona iqtisodiyotni qisqartirish, soliq bazani kengaytirish va byudjetga qo'shimcha soliq tushumlarini oshirish maqsadida:

1) Korxonalar tomonidan tabiiy gaz import qilishda ham, import qilingan gazni realizatsiya qilishda ham aksiz solig'i to'lanmayapti. Vaholanki, import qilingan tabiiy gazni iste'molchilarga realizatsiya qilishda qo'llaniladigan ta'riflarda aksiz solig'i summasi kiritilgan. Mazkur aksiz solig'i summasi iste'molchilar tomonidan to'lanib, byudjetga to'lanmasdan qolmoqda.

Buning hisobiga byudjetga 1327,5 mlrd.so'm aksiz solig'i yo'qotildi Respublika bo'yicha 2023-yil 6 oyda 2312,7 mln-kub m gaz import qilingan bo'lsa, 2024-yilning mos davrida 5 242,6 mln.kub.m.ni tashkil etib, 2,2 baravarga oshgan.

1-variant. Import qilingan tabiiy gazni realizatsiya qilishda aksiz solig'ining 20 foizlik stavkasini joriy etish.

2-variant. Import qilingan tabiiy gazni realizatsiya qilishda aksiz solig'ining 15 foizlik stavkasini joriy etish.

3-variant. Import qilingan tabiiy gazni realizatsiya qilishda aksiz solig'ining 10 foizlik stavkasini joriy etish.

2). 2023-yil yakuniga ko'ra respublikada 552,4 ming tonna gaz kondensati qazib olingan, 431,2 ming tonna gaz kondensati import qilingan. 2024-yil yanvar-may oylarida 244,8 ming tonna gaz kondensati qazib olingan, 144,9 ming tonna gaz kondensati import qilingan.

Gaz kondensatini ishab chiqarish va import qilish uchun aksiz solig'ini joriy etish (1 tonna uchun 200 ming so'm).

3). 2025-yil 1-yanvardan respublikada ishlab chiqariladigan filtrli, filtrsiz sigaretalar, papirosalar, sigarillalar (sigaritlar), bidi, kretek uchun aksiz solig'ining qat'iy stavkalarini 1000 donasi uchun import qilinadigan stavkalar bilan birxillashtirish va advalor stavkani (10 foiz) bekor qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

4). O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 1-iyundagi 345-son qarori bilan tasdiqlangan "Alkogolsiz ichimliklarning xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglament"ga asosan, alkogolsiz ichimliklarga sut va mevalar va (yoki) sabzavotlardan olingan sharbat mahsulotlari kirmasligi ko'rsatilgan.

Natijada tarkibida sharbat bo'lgan mevali va sabzavotli ichimliklar, ya'ni meva yoki sabzavot pyuresi, konsentratsiya qilingan meva yoki sabzavot pyuresini ichimlik suv bilan aralashtirish yo'li bilan ishlab chiqarilgan ichimliklar (sok) uchun suv solig'i stavkasi sanoat korxonalari uchun belgilangan stavkalarda hisoblanmoqda. Bugungi kunda 1,5 litr Bonaqua mineral suv narxi 3 781 so'mni, narxdagi suv solig'i summasi 46 so'mni tashkil etadi. Ulushi 1,2%. 1,5 litr Coca-Cola ichimligi narxi 9 837 so'mni, narxdagi suv solig'i summasi 46 so'mni tashkil etadi. Ulushi 0,5%. Xuddi shunday, 1 litr Bliss sharbati narxi 7 698 so'mni, narxdagi suv solig'i summasi 0,7 so'mni tashkil etadi. Ulushi 0,01%. Agar sharbat ichimligi uchun xam alkogolsiz ichimliklarga qo'llaniladigan 34 160 so'm stavkada belgilansa, suv solig'i summasi 34,16 so'm, ulushi 0,44% bo'ladi.

Taklifimiz mevalar va (yoki) sabzavotlardan olingan sharbat mahsulotlari ishlab chiqarishda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasini alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqaruvchilar to'laydigan stavkada to'lash tartibini joriy etish.

Адабиётлар/Литература/Reference

1. Каширина, М. В. Проблемы уплаты акцизов на алкогольную продукцию в России / М. В. Каширина, Б. Б. Ташполатова // Московский экономический журнал. – 2017. – № 5. – С. 32.
2. Delipalla, S. (2009). Commodity tax structure and informal activity. Bulletin of Economic Research, 61(3), 283-294.
3. Giles, D. E., Tedds, L. M., & Werkneh, G. (2002). The Canadian underground and measured economies: Granger causality results. Applied Economics, 34(18), 2347-2352.
4. Hai, O. T., & See, L. M. (2011a). Behavioral intention of tax non-compliance among sole-proprietors in Malaysia. International Journal of Business and Social Science, 2(6), 142-152.
5. Джамалов Х.Н., Уразметов Ж.М. Задачи анализа финансово-хозяйственно-цифровой деятельности в новой системе финансового менеджмента. // Иқтисодиёт ва таълим, 2021. № 3, с. 96-103.
6. Боровко Л.В. Формирование социально-ориентированной модели акцизного налогообложения и эффективность её развития. // Проблемы экономики и юридической практики, 2012, № 6, с. 71-75.
7. Теретаева О.Р. К проблемам реформы акцизного налогообложения. // Налоговый менеджмент. 2016. № 6. С. 23-27.
8. Троянская М.А., Низамиева Ю.О. Совершенствование акцизного налогообложения как инструмента налогового регулирования. // Бизнес в законе, 2013, № 8, с. 121.
9. Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси- Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёт уйи 2020.– 640 б.
10. Ўзбекистон Республикаси солиқ қўмитаси маълумотлари. www.soliq.uz.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

